

1 OKTYABRDAN NIMALAR O'ZGARADI?

2024 yil 1 oktyabrdan kuchga kiradigan milliy qonunchilikdagi asosiy o'zgartirishlar sharhi bilan tanishing

Ish haqi, eng kam ish haqi va BHM oshiriladi

Byudjet tashkilotlarda ishlaydigan tibbiyot xodimlari, shuningdek maktabgacha, umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari va tashkilotlari, «Muruvvat» internat uylari, Bolalar uylari va «Mehribonlik» uylari, bolalar sanatoriylarida ishlaydigan pedagog xodimlarning ish haqi miqdori 15 foizga oshiriladi (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/kuzda_ish_haqi_pensiya_va_nafaqlar_oshiriladi).

Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdori, tibbiyot va pedagog xodimlardan tashqari, 10 foizga oshiriladi.

Eng kam ish haqi miqdori - oyiga 1 155 000 so'm, BHM – 375 000 so'm etib belgilanmoqda.

Modulli mehmonxonalarga subsidiyalar

2026 yil 31 dekabrga qadar tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan modulli mehmonxonani qurish va jihozlash (rekonstruktsiya qilish bundan mustasno) xarajatlarining bir qismini qoplash uchun Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan bir martalik subsidiya ajratiladi (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/turizmni_qullab-quvvatlash_jamgarmasi_modulli_mehmonhonalarini_ochish_uchun_subsidiya_tulaydi).

Subsidiyalar 2024 yil oktyabrdan 2026 yil 1 noyabrga qadar bo'lган muddatda muvofiqlik sertifikatiga ega yangi tashkil etilgan modulli mehmonxonaga beriladi. To'lovlarни olish uchun mehmonxonada kamida 10 ta modul bo'lishi kerak.

Turoperatorlar va mehmonxonalarga QQSning bir qismi qaytariladi

Turoperatorlik va mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlariga har oyning 25-sanasiga qadar to'langan QQSning 20 foizi qaytariladi. (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/tadbirkorlar_uchun_faoliyat_yuritish_sharoitlari_yahshilanadi)

Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'ları hisobidan amalga oshiriladigan davlat grantlari va davlat ijtimoiy buyurtmalari loyihalari doirasida to'lanadigan quyidagi soliq turlari bo'yicha belgilangan soliq stavkalari 50 foizga kamaytiriladi (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/nnt_vakili_oliy_majlis_qonunchilik_palatasi_yigilishlarida_qatnashadi).

Normativ huquqiy hujjatlar loyihalarini soddalashtirilgan va kengaytirilgan baholash tartibi joriy etilmoqda.

Soddalashtirilgan tartibda (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/normativ-huquqiy_hujjatlar_loyihalari_tasiri_qanday_baholanadi) loyiha ishlab chiqilishidan oldin quyidagi tartibga solish vositalari baholanadi va baholash natijalari yuzasidan Adliya vazirligining dastlabki xulosasi olinadi:

majburiyat, talab, taqiq, javobgarlik yoki boshqa cheklowlarni belgilash, ularni o'zgartirish yoxud talablarga riosa qilishni yoki ularni bajarishni ta'minlash bilan bog'liq ta'sir choralarini qo'llash;

tadbirkorlik sub'ektlariga taqdim etilayotgan imtiyoz, preferentsiya va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning boshqa turlarini joriy qilish, ularning ta'sir doirasini kengaytirish yoki qisqartirish.

Kengaytirilgan tartibda quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari baholanadi:

soddalashtirilgan baholash natijalari bo'yicha iqtisodiy, ijtimoiy va atrof-muhitga ta'siri darajasi yuqori deb topilgan loyihalar;

Oliy Majlis palatalari, Prezident Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi topshiriqlari hamda baholash sohasidagi vakolatli organlar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor tomonlarning taklifiga ko'ra kengaytirilgan baholashdan o'tkazilishi lozim deb topilgan loyihalar.

Ovchilik guvohnomasini olish uchun yangi qoidalar

Ovchilik guvohnomasini (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/ovchilik_guvohnomasi_mahsus_k_urslarda_uqigandan_sung_beriladi) olishga nomzodlar maxsus kurslarda o'qitiladi;

ovchilik guvohnomasi muomalaga layoqatli, 18 yoshga to'lgan, o'quv kurslarini tugatgan va test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan jismoniy shaxslarga Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali 2 yil muddatga beriladi;

ovchilik guvohnomasini rasmiylashtirganlik uchun to'lov bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida, nafaqadagi va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida belgilanadi.

Zargarlik sohasiga imtiyozlar

2027 yil 1 oktyabrgacha:

zargarlik sanoatida (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/zargarlik_sohasini_rivojlantirish_uchun_qushimcha_choralar_tasdiqlandi) foydalaniladigan ligaturani import qilishda maxsus tovarlarni import qilish uchun litsenziya olish talabi bekor qilinadi;

O'zbekiston hududiga olib kiriladigan va zargarlik sanoatida foydalaniladigan ligatura bojxona boji to'lashdan ozod qilinadi;

O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan va zargarlik sohasida foydalaniladigan, ro'yxatlar bo'yicha import qilinadigan uskunalar, qadoqlash va etiketka mahsulotlari bojxona boji to'lashdan ozod qilinadi;

«Uzbek Jewellery Fair» xalqaro ko'rgazma-savdosi doirasida O'zbekiston norezidentlari tomonidan respublika hududiga vaqtincha olib kiriladigan va keyinchalik qaytarib olib chiqiladigan zargarlik buyumlariga nisbatan bojxona yig'implari bekor qilinadi.

Zargarlik sohasi ustidan nazorat kuchaytiriladi

Davlat probir nazorati inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalariga quydagilarga ruxsat beriladi (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/zargarlik_sohasini_rivojlantirish_uchun_qushimcha_choralar_tasdiqlandi):

Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilni xabardor qilish yo'li bilan zargarlik buyumlari bilan chakana savdo qoidalariiga rioya etilishini tekshirish, ularning probasini aniqlash va tamg'lash bilan bog'liq nazorat tadbirlarini o'tkazish;

nazorat tadbirlarini o'tkazishga «O'zbekzargarsanoati» uyushmasi mutaxassislarini jalb qilish;

zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish yoki sotish faoliyatini boshlash (tugatish) to'g'risidagi xabarnomalarni qabul qilish bo'yicha o'z funktsiyalarini autsorsing asosida Savdo-sanoat palatasiga o'tkazish.

Nogironligi bor shaxslar uchun sharoitlar yaxshilanadi

Rekonstruktsiya qilinadigan va ta'mirlanadigan ob'ektlarning shaharsozlik hujjatlari loyihibarining texnik qismi shaharsozlik normalari va qoidalarda belgilangan nogironligi bo'lgan shaxslar (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/shahar_muhitida_nogironligi_bulgan_shahslar_ehtiejlari_uchun_sharoitlar_yaratiladi) uchun sharoit yaratish bo'yicha talablarga muvofiqligi yuzasidan majburiy ekspertizaga yuboriladi.

Shahar yo'lovchi transporti xizmatlari I guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga va ularning bir nafar kuzatuvchisiga bepul taqdim etiladi.

Ixtisoslashtirilgan (ruhiy, ftiziatriya va pulmonologiya, pediatriya) tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalar (~~TIEK~~) tomonidan nogironlikni belgilash bekor qilinadi

(https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/nogironlikni_belgilashning_yangi_tartibi_joriy_etilmogaqda). Bu funktсия туманлараро ва туман (шахар) TIEKlariga o'tkaziladi.

Davlat xaridlari jarayoni takomillashtiriladi

Davlat buyurtmachilar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar ular tuzilishidan oldin kamida bir ish kuni, shuningdek, tender savdolari natijalariga ko'ra rasmiylashtirilgan bayonnomalar davlat xaridlari maxsus axborot portaliga joylashtirish orqali kamida ikki ish kuni davomida jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/davlat_haridlarida_kimlarga_imtiezlar_beriladi).

Yagona yetkazib beruvchilar reestriga bozorda muqobillari bo'limgan va texnik jihatdan murakkab tovarlarni yetkazib beruvchilar monopoliyaga qarshi kurashish organining xulosasi asosida kiritiladi.

Davlat xaridlari elektron tizimiga ushbu tizimdan ro'yxatdan o'tgan yuqori barqarorlik reytingiga ega bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlarini ular tomonidan ishlab chiqariladigan (etkazib beriladigan) tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) mos keladigan davlat buyurtmasining tizimga joylashtirilganligi to'g'risida xabardor qilish funksiyasi kiritiladi.

Uy parrandasi go'shtini olib kirishga imtiyozlar bekor qilinadi

Yangi so'yilgan, sovitilgan yoki muzlatilgan uy parrandasi go'shti va qo'shimcha ozuqabop mahsulotlari (butun go'sht, qanot, bel, bo'yin, okorochok, gofen, son, qiyma va teri) O'zbekiston hududiga olib kirishda bojxona boji bo'yicha imtiyoz berilgan edi (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/parrandachilik_sohasini_qanday_qullab-quvvatlashadi).

O'quv markazlari reytingi tuziladi

Yoshlar ishlari agentligi har yili xususiy o'quv markazlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimidagi reytingini (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/horijiy_tillarni_urgan_aetganlar_uchun_qushimcha_ragbatlantirish_belgilandi) tuzishni boshlaydi hamda rasmiy veb-saytida e'lon qilib boradi.

Ayollar va bolalar uchun birlamchi ko'mak xonalari ishga tushiriladi

Barcha hududlarda shoshilinch qabul bo'limida tunu-kun ishlaydigan birlamchi ko'mak xonalari (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/zuravonlikka_uchragan_hotin-qizlarga_qanday_erdam_beriladi) tashkil etiladi.

Alkogol mahsulotlari ustidan yangi nazorat choralar o'rnatiladi

Iste'mol va texnik etil spirti, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarishda qo'shimcha litsenziya talablari joriy etiladi (https://www.norma.uz/www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/alkogol_va_tamaki_mahsulotlari_bozorini_tartibga_solishda_nimalar_uzgardi).

Yashirin ishlab chiqarish, aktsiz markasiz, raqamli markirovkasiz yoki sifatsiz alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish holatlari aniqlanganda ishlab chiqarish uskunalari davlat foydasiga o'tkaziladi.

Qalbaki aktsiz markali, aktsiz markasiz, raqamli identifikatsiya vositasi bilan markirovkalanmagan, qalbaki markirovka kodlari bilan markirovkalangan alkogol va tamaki mahsulotlari nazorat qiluvchi organlar tomonidan muomaladan olinadi va ushbu mahsulotlar bilan savdo qilish huquqini beruvchi litsenziya (ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat) belgilangan tartibda bekor qilinadi.

Qurilishi tugallangan ob'ektlar elektron platforma orqali qabul qilinadi

Qurilishi tugallangan ob'ektlarni foydalanishga qabul qilish jarayoni raqamlashtirilgan holda, «Shaffof qurilish» milliy axborot tizimining «Qurilishda davlat nazorati» elektron platformasi (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/qurilish_va_uyjoy_kommunal_hujaligi_vazirligining_tuzilmasida_loyiha_ofisi_tashkil_etildi) orqali rasmiylashtiriladi.

Sport tovarlarini bojlardan ozod etish muddati yakunlanadi

Turizm va sport vazirligi, Milliy olimpiya qo'mitasi, Milliy paralimpiya qo'mitasi, olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha federatsiya (assotsiatsiya)lar tomonidan belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha xorijdan olib kelinadigan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan sport

ashyolari 2024 yil

1 oktyabrga qadar bojxona bojidan ozod etilgan edi (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/uzbek_iston_sportchilari_olimpiya_va_paralimpiya_uyinlariga_tayergarlik_kursatmoqdalar).

Ayollar muammolarini o'rganish uchun yangi modul

«Xotin-qizlar.uz» platformasi doirasida Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va tizimli hal etish moduli ishga tushiriladi (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/hotin-qizlarni_qullab-quvvatlashning_yangi_mehanizmi_joriy_etildi).

«Mahalla yettiligi» fuqarolarning muammolarini hal qiladi

Fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini aniqlash (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/mahallalarda_aholi_muammolarini_aniqlashning_yangi_tizimi_joriy_etilmoxda) va hal qilish bilan «Mahalla yettiligi» vakillari yagona so'rovnama asosida shug'ullanadi. U «Raqamli mahalla» platformasida joylashtiriladi. «Mahalla yettiligi» foydalanayotgan mavjud elektron platformalar «Raqamli mahalla» platformasi bilan integratsiya qilinadi.

Xavfli yuklar ustidan nazorat sohasi raqamlashtiriladi

Tranzit qilinayotgan xavfli yuklar onlayn (GPS) kuzatib boriladi (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/havfli_yuklar_tranziti_uchun_ruhsatnama_elektron_shaklda_beriladi).

Er qa'ridan foydalanish sohasidagi huquqbazarliklar haqida xabar bergenlar rag'batlantiriladi

Jismoniy shaxslar tomonidan Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi maxsus axborot tizimiga yuborilgan yer qa'ridan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog'liq huquqbazarlik holatlari to'g'risidagi fotosuratlar va videoyozuvlар belgilangan tartibda ko'rib chiqilib, ularni yuborgan shaxslar pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/er_qaridan_foydalanish_qoidalari_buzilganligi_haqida_habar_bergan_shahslar_mukofotlanadi).

Vazirlikning rasmiy veb-saytida «Kon-geologiya xizmatlari» moduli joriy etiladi va unda tog'-kon sanoati va geologiya sohasida faoliyat yurituvchi yuridik va jismoniy shaxslarning reytingi yuritiladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi huquqbazarliklar bo'yicha choralar belgilanmoqda

Texnik jihatdan talablarga nomuvofiq mahsulotni muomaladan chiqarish yoki mahsulotning kamida 60 foizini chaqirib olish to'g'risidagi ko'rsatmalarни bajarmaganlik uchun - yuridik shaxslarga realizatsiya qilingan mahsulot qiymatining 100 foizi miqdorida moliyaviy jarima (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/tekshiruvlar_tehnik_jihatdan_tartibga_solish_sohasini_takomillashtirishga_oid_yangi_choralar) qo'llanadi.

Sertifikatlashtirish organining qoidalarga rioya etmaganligi natijasida sifatsiz mahsulotlar qilinganligi holatlari aniqlanganda, mazkur organning sertifikatlash faoliyatini to'xtatib turiladi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2024-10-01 15:05:17